

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.I.30.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**KOMILOVA MUKAMMAL SHAVKATOVNA**

**TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT SIYOSATINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahar – 2026 yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract for Doctor of Philosophy (PhD) in  
Economics**

**Komilova Mukammal Shavkatovna**

Tijorat banklarida depozit siyosatini takomillashtirish.....3

**Комилова Мукаммал Шавкатовна**

Совершенствование депозитной политики в коммерческих банках.....29

**Komilova Mukammal Shavkatovna**

Improvement of Deposit Policy in Commercial Banks .....55

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....60

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.I.30.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**KOMILOVA MUKAMMAL SHAVKATOVNA**

**TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT SIYOSATINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahar – 2026 yil**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.Phd/Iqt5420 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz tili – resume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tiu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Niyozov Zuxur Davronovich  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:** Abduraxmonov Ilyos Xurshidovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sobirova Nozima Normat qizi  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.30.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "18" 04 soat 49<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55, e-mail: info@tiu.uz, faks (99895) 131-55-55, e-mail: info@tiu.uz.

Dissertatsiya bilan Tashkent International Universityning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (28 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55, faks (99895) 131-55-55 e-mail: info@tiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "24" 03 kuni tarqatildi.  
(2026-yil "7" 02 dagi 8 raqamli reestr bayonnomasi)



**N.X. Jumayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**A.T. Absalamov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**D.A. Raxmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon moliyaviy tizimining barqaror faoliyatida banklar muhim institutsional bo'g'inlardan biri sifatida namoyon bo'lib, ularning faoliyati iqtisodiyotning real sektori, investitsiya jarayonlari hamda aholining jamg'arma xulq-atvori bilan uzviy bog'liqdir. Bank tizimida depozit operatsiyalari kredit muassasalarining resurs bazasini shakllantirish, likvidlikni ta'minlash hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda asosiy manba sifatida e'tirof etiladi. Aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning vaqtincha bo'sh pul mablag'larini bank tizimiga jalb qilish iqtisodiy o'sishning muhim sharti bo'lib, ushbu jarayon banklarning kreditlash salohiyatini kengaytirish, investitsiya faoliyatini faollashtirish hamda moliyaviy vositachilik samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bois depozit siyosatini takomillashtirish, depozit mahsulotlarini diversifikatsiya qilish hamda omonatchilar ishonchini mustahkamlash zamonaviy bank tizimi rivojlanishining ustuvor strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, depozit siyosatining samaradorligi nafaqat foiz stavkalari darajasi bilan, balki depozit mahsulotlarining tarkibiy xilma-xilligi, shartlarning moslashuvchanligi hamda omonatchilarni rag'batlantirish mexanizmlarining mavjudligi bilan belgilanadi. So'nggi yillarda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda depozit portfelining muddat tarkibini optimallashtirish, depozitlarni indeksatsiya qilish, investitsiya instrumentlariga bog'langan depozit mahsulotlarini joriy etish hamda raqamli platformalar orqali masofaviy depozit xizmatlarini kengaytirish bank resurs bazasining barqarorligini oshirishning muhim yo'nalishlari sifatida qaralmoqda. Mazkur yondashuv banklarning aktiv-passivlarini samarali boshqarish, likvidlik xatarlarini kamaytirish hamda uzoq muddatli kreditlash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Jahon ilmiy adabiyotlarida depozit operatsiyalari va depozit siyosatini takomillashtirish masalalari bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, depozit portfelini boshqarishning nazariy asoslari, depozit xulq-atvor modellari hamda bank resurs bazasini optimallashtirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Biroq O'zbekiston bank tizimining institutsional rivojlanish bosqichi, raqamli transformatsiya jarayonlari, moliyaviy savodxonlik darajasi hamda milliy bank amaliyotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda depozit siyosatini takomillashtirish bo'yicha kompleks ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimida depozitlar hajmining o'sish sur'atlari mazkur masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va mintaqaviy tadqiqotlar instituti (MMTI) ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatdagi umumiy depozitlar hajmi bir yil ichida 28,1 foizga oshib, 2025-yil 1-fevral holatiga 310,2 trln. so'mni tashkil etgan. Shundan xususiy banklarda joylashtirilgan omonatlar ulushi 50 foizga yetib, aholining xususiy banklarga bo'lgan ishonchi ortib borayotganidan dalolat beradi. Hisobot davrida milliy valyutadagi depozitlar hajmi 36 foizga, xorijiy valyutadagi depozitlar esa 7,4 foizga oshgan, valyuta omonatlaridagi foiz stavkalari esa 4,7

foizdan 5,3 foizgacha ko'tarilgan<sup>1</sup>. Mazkur ko'rsatkichlar tijorat banklari faoliyatida depozitlarning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Biroq depozit portfelining tarkibida qisqa muddatli omonatlarning yuqori ulushi, depozit mahsulotlarining yetarlicha diversifikatsiya qilinmaganligi hamda omonatchilarni uzoq muddatli jamg'armalarga jalb etish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi banklarning resurs bazasi barqarorligini cheklovchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli depozit tarkibini takomillashtirish, xususan uzoq muddatli omonatlar ulushini oshirish banklarning moliyaviy sog'lomlashuvi, kreditlash salohiyatini kengaytirish va likvidlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 18-fevraldagi O'RQ-1031-sonli "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni hamda Markaziy bankning tegishli normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi. Shu bilan birga, depozit siyosatini takomillashtirish, depozit mahsulotlarini differentsiallashtirish, omonatchilarni rag'batlantirish mexanizmlarini rivojlantirish hamda depozitlarni kafolatlash tizimini institutsional jihatdan mustahkamlash bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi.** Ushbu tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning "Demokratik va huquqiy jamiyatning ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan:

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tijorat banklarining depozit siyosati masalalari bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, A.A.Martens, N.O.Derkach, G.G.Korobov, O.I.Lavrushin, M.R.Kadjaeva, E.I.Vorobyova, N.V.Alentyeva, G.N.Beloglazova, L.P.Krolivetskaya, V.A.Chelnokov va boshqalarning<sup>2</sup> ilmiy

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va mintaqaviy tadqiqotlar instituti rasmiy axborotlari. – URL: <https://imrs.uz> (murojaat sanasi: 01.02.2025).

<sup>2</sup> Мартенс А.А., Деркач Н.О. Депозитная политика как базовый элемент фондирования коммерческого банка / А.А. Мартенс, Н.О. Деркач // Образование и наука: современные тренды: коллективная монография (Чебоксары, 15 март 2018 г.) / гл. ред. О.Н. Широков – Чебоксары: ЦНС "Интерактив плюс", 2018. – С. 140-150; Тихомирова Е.В. Банковское дело / Е.В. Тихомирова, Н.П. Рудковская // Санкт-Петербург: изд-во СПбГУ, - 2018. - С. 212; Лаврушин О.И. Банковский менеджмент. / О.И. Лаврушин // -М.: КНОРУС - 2018. - с. 189.; Каджаева М. Р. Банковские операции / М. Р. Каджаева // - М.: ИЦ "Академия", - 2018. -С.7.; Воробьева Е.И. Депозитная политика Российского Национального коммерческого банка (ПАО) в Республике Крым. Научный вестник: Финансы, банки, инвестиции - 2018 - №1. -С. 99-110.; Алентьева, Н.В. Депозитная политика коммерческого банка в современных условиях [Текст] / Н.В. Алентьева // Вестник аграрной науки. - 2019.- № 1 (76). - С. 85-90.; Белоглазова Г.Н. Банковское дело. Организация деятельности коммерческого банка. Организация деятельности коммерческого банка / Г.Н. Белоглазова, Л.П. Кролевецкая. -М.: Издательский дом "Юрайт", - 2018. - С.178.; Шапошников И.Г. Банковское потребительское кредитование в современных условиях // Пермский финансовый журнал. 2016. №2.

ishlari mazkur sohaning nazariy asoslarini shakllantirishga muhim hissa qo‘shgan. Mahalliy olimlar orasida M.N.Buxadurova, S.M.Xodiyev, B.U.Shermuxammedov, U.Azizov, N.I.Sultonova, M.Abdullaev, N.Yusupova, Sh.Ibodullaev, F.Bobobekov, T.Sharipov, D.Axmedova, V.Kaytarov, N.Sobirova, Z.Hakimov va boshqalar<sup>3</sup> tomonidan ham muhim izlanishlar olib borilgan.

Shu bilan birga, depozit siyosatini moslashuvchan mexanizmlar asosida takomillashtirish, depozit mahsulotlarini investitsiya instrumentlari bilan integratsiyalash, bonus va sodiqlik mexanizmlarini joriy etish hamda omonatlarni kafolatlash tizimining moliyaviy barqarorligini kuchaytirish masalalari yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Samarqand iqtisodiyot va servis institutining “Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Zamonaviy moliya bozorining transformatsiyasi sharoitida O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozit siyosatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan konseptual yondashuvlar hamda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari**

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

tijorat banklarining depozit siyosati kategoriyasining nazariy mazmunini tizimli tahlil qilish hamda mualliflik konseptual ta’rifini ishlab chiqish;

depozit siyosatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy mexanizmlarni va rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotini o‘rganish asosida ularning qiyosiy tahlilini amalga oshirish;

ilg‘or xalqaro bank tajribasini hisobga olgan holda depozit operatsiyalarini modernizatsiya qilish yo‘nalishlarini ilmiy asoslash;

---

<sup>3</sup> Бухадурова М.Н. “Депозитная политика коммерческих банков во взаимоотношениях с населением”. автореферат. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.10. – М.: 2012. – С. 12-15.; Ходиев С.М. “Совершенствование депозитной политики коммерческих банков в условиях либерализации экономики”. автореферат дис. ... канд. экон. наук. 08.00.07. – Т.: 2010. – С. 19-20 B.U.Shermuxammedov. “Tijorat banklarining depozit siyosati va uni iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirish yo‘llari” //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2021 yil. – С. 1-12.; Азизов У. Влияние валютной политики на депозитную базу коммерческих банков Узбекистана. – Т.: ТФИ, 2019.; N.I.Sultonova. Bank depozitlarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2018 yil. – В. 1-8.; Абдуллаев М. “Диверсификация источников депозитного финансирования как ключевой фактор устойчивости банковской системы”. Экономический обзор Узбекистана, 2021, №4, - С. 34–42.; Юсупова Н. Инновационные депозитные продукты и цифровизация депозитных операций как фактор повышения доверия клиентов к банковской системе”. Журнал “Финансовые инновации и развитие”, 2022, №3, - С. 45–52.; Ibodullayev Sh. “Aholi omonatlarini tijorat banklariga jalb qilishning dolzarb muammolari” //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali №3, Mart 2024, 278-282 b.; Bobobekov F. “Tijorat banklarining depozitlar orqali resurs jalb qilishning joriy holati” //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali №12, Dekabr 2024, 276-283 b. Sharipov T. Innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari i.f.f.d.(PhD) dissertatsiya avtoreferati. Т.: TIU. 2024; Kaytarov V. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining deposit operatsiyalarini takomillashtirish. i.f.f.d.(PhD) dissertatsiya avtoreferati. Т.:TIU. 2024, Salimova N. Tijorat banklarida jismoniy shaxslar uchun omonat siyosatini rivojlantirish istiqbollari. i.f.f.d.(PhD) dissertatsiya avtoreferati. Т.: TIU. 2025; Hakimov Z. Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirish. i.f.f.d.(PhD) dissertatsiya avtoreferati. Т.: TIU. 2025.

respublika tijorat banklarida depozit xizmatlari bozorining hozirgi holatini tahlil qilish;

depozit siyosatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** – O‘zbekiston Respublikasidagi tijorat banklarining depozit operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmi hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti** – tijorat banklari bilan jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasida depozit siyosatini takomillashtirish jarayonida shakllanadigan moliyaviy munosabatlar majmuasidan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, mantiqiy tafakkur, umumlashtirish, tizimli hamda taqqoslama tahlil, statistik tahlil usullari, shuningdek amaliy va statistik ma’lumotlarni qayta ishlashda iqtisodiy-matematik yondashuvlardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini va depozit resurslarini jalb etish samaradorligini oshirishda depozit mahsulotlarini obligatsiyalar, obligatsiyalar fondlari va boshqa moliyaviy investitsiya instrumentlari bilan integratsiyalash orqali depozit siyosatini takomillashtirish asoslangan.

tijorat banklarida mijozlar ehtiyojlarini qondirish va depozit resurslarini samarali jalb etishda depozit mahsulotlarini talabalar, nafaqaxo‘rlar, tadbirkorlar kabi toifalarga ajratgan holda mijoz segmentlari bo‘yicha depozit mahsulotlarini differensiallashtirish va moslashuvchan depozit dasturlarini joriy etish taklif etilgan;

tijorat banklarida uzoq muddatli jamg‘armalarini rag‘batlantirish va depozit sodiqligini oshirishda mijozlarning 13 oydan ortiq muddatga joylashtirilgan depozitlariga foiz bonuslari, naqd pul mukofotlari va xizmat imtiyozlarini o‘z ichiga olgan bonus dasturlari hamda sodiqlik mukofotlarini joriy etish asoslangan;

omonatlarni kafolatlash jamg‘armasining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda bir martalik badallar sifatida ustav kapitalining eng kam miqdorining 0,1 foizini va taqvimiy badallar sifatida bankning depozit bazasidan hisoblangan summani chorak davomida 0,5 foizdan oshmagan miqdorda undirish mexanizmini joriy etish asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tijorat banklarida depozit resurslarining ulushini oshirish maqsadida depozit mahsulotlarini investitsiya vositalariga bog‘lash imkoniyatlarini hisobga olgan holda depozit siyosatini takomillashtirishning amaliy ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi;

depozit mahsulotlarini maqsadli auditoriyalar (talabalar, nafaqaxo‘rlar va tadbirkorlar) ehtiyojlariga moslashtirilgan moslashuvchan depozit dasturlariga differensiallashtirish zarurligi ilmiy asoslandi;

jalb qilingan mablag‘lar tarkibida uzoq muddatli omonatlar ulushini oshirish maqsadida mijozlarni rag‘batlantiruvchi bonus dasturlari va sodiqlik mukofotlari mexanizmlarini ishlab chiqishning zarurligi dalillab berildi;

omonatlarni kafolatlash jamg'armasining moliyaviy bazasini mustahkamlash maqsadida bir martalik va kalendar badallar mexanizmini joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Ushbu tadqiqotda qo'llanilgan tahlil usullari hamda axborot-statistik ma'lumotlarning asosliligi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy manbalaridan, Markaziy bank va tijorat banklarining rasmiy veb-saytlaridan olingan ma'lumotlar, shuningdek respublika hududidagi jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar natijalariga asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Ushbu tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda bayon etilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar tijorat banklarining depozit siyosatini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, ular kelgusidagi ilmiy izlanishlarda tijorat banklarining depozit operatsiyalarini amalga oshirishning nazariy va metodologik asoslarini rivojlantirishda qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar tijorat banklarining depozit operatsiyalarini amalga oshirish faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayonida davlat boshqaruv organlari tomonidan qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa uning natijalaridan respublika miqyosida hamda har bir iqtisodiy hudud darajasida tijorat banklarining depozit operatsiyalarini takomillashtirish bo'yicha dasturiy yechimlar va chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda, shuningdek, pul-kredit siyosati organlari va moliyaviy muassasalar uchun tavsiyalar tayyorlash jarayonlarida foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.** Tijorat bankining depozit siyosatini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini va depozit resurslarini jalb etish samaradorligini oshirishda depozit mahsulotlarini obligatsiyalar, obligatsiyalar fondlari va boshqa moliyaviy investitsiya instrumentlari bilan integratsiyalash orqali depozit siyosatini takomillashtirishga doir taklif AT "Xalq banki" tomonidan "Bankning 2025 yil uchun depozit siyosati"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (AT "Xalq bank"ning 2025-yil 1 dekanrdagi 9-23/4835-son ma'lumotnomasi). Natijada, tijorat bankining depozit resurslari ulushi AT "Xalq banki" ning depozit portfelida 7–12 foizga oshgan;

tijorat banklarida mijozlar ehtiyojlarini qondirish va depozit resurslarini samarali jalb etishda depozit mahsulotlarini talabalar, nafaqaxo'rlar, tadbirkorlar kabi toifalarga ajratgan holda mijoz segmentlari bo'yicha depozit mahsulotlarini differensiallashtirish va moslashuvchan depozit dasturlarini joriy etish taklif, O'zbekiston bank amaliyotida AT "Xalq banki" tomonidan "Bankning 2024 yil uchun depozit siyosati"ni ishlab chiqishda qo'llanilgan (AT "Xalq bank"ning 2025-yil 1 dekanrdagi 9-23/4835-son ma'lumotnomasi). Natijada, AT "Xalq bank"ning depozit resurslari ulushi 2023 yildagi 10 foizdan 2024 yilda 17 foizga oshgan;

tijorat banklarida uzoq muddatli jamg'armalarini rag'batlantirish va depozit sodiqligini oshirishda mijozlarning 13 oydan ortiq muddatga joylashtirilgan depozitlariga foiz bonuslari, naqd pul mukofotlari va xizmat imtiyozlarini o'z ichiga olgan bonus dasturlari hamda sodiqlik mukofotlarini joriy etish taklifi O'zbekiston Respublikasi AT "Xalq banki" tomonidan "Bankning 2025 yil uchun depozit siyosati"ni ishlab chiqishda qo'llanilgan (AT "Xalq bank"ning 2025-yil 1 dekanrdagi 9-23/4835-son ma'lumotnomasi). Natijada, AT "Xalq banki" ning depozit portfelida depozit resurslari ulushi 10–17 foizga oshgan;

omonatlarni kafolatlash jamg'armasining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda bir martalik badallar sifatida ustav kapitalining eng kam miqdorining 0,1 foizini va taqvimiy badallar sifatida bankning depozit bazasidan hisoblangan summani chorak davomida 0,5 foizdan oshmagan miqdorda undirish mexanizmini joriy etish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2025 yil 18 fevraldagi O'RQ-№1031 "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi Qonunini ishlab chiqishda foydalanilgan (AT "Xalq bank"ning 2025-yil 1 dekanrdagi 9-23/4835-son ma'lumotnomasi). Natijada, 2024 yilda aholining bank omonatlari 12 foizga oshgan, bu esa bankning resurs bazasining ortishiga va ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** O'tkazilgan tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy konferensiyada muhokama qilingan, shulardan 3 tasi xalqaro va 2 tasi respublika miqyosidagi konferensiyalardir.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 5 ta ma'ruza tezislari nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish qismi, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 140 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, ularning amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ilmiy ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining "**Tijorat banklarining depozit siyosatining nazariy asoslari va mohiyati**" deb nomlangan birinchi bobida tijorat banklarining depozit siyosatiga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar, depozit siyosatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslar hamda xorijiy mamlakatlar bank amaliyotida qo'llanilayotgan depozit mexanizmlari tizimli tahlil qilingan.

Depozit siyosati bank moliyaviy boshqaruvining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, depozit mahsulotlari orqali mablag‘larni jalb qilish shart-sharoitlarini belgilaydi. Samarali ishlab chiqilgan depozit siyosati bank resurs bazasini barqaror shakllantirish, likvidlik xatarlarini kamaytirish hamda bankning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi. O‘zgaruvchan bozor sharoitlarida banklar uchun nafaqat jismoniy, balki yuridik shaxslar manfaatdorligini oshirishga qaratilgan depozit takliflarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Depozit siyosatiga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar tahlili mazkur sohada keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilganligini ko‘rsatadi. Xususan, A.A.Martens va N.O.Derkach depozit siyosati bank resurs bazasini shakllantirish bilan bir qatorda bankning kredit salohiyati va moliyaviy faoliyat samaradorligini belgilovchi omil ekanligini ta‘kidlaydilar.<sup>4</sup> G.G.Korobova depozit siyosatini tijorat banki resurslarini shakllantirish va tartibga solishga qaratilgan tadbirlar majmui sifatida tavsiflaydi.<sup>5</sup> O.I.Lavrushin depozit siyosatini bank siyosatining tarkibiy qismi sifatida omonatchilarning mablag‘larini jalb qilish jarayonini boshqarishga yo‘naltirilgan mexanizm deb izohlaydi.<sup>6</sup> M.R.Kadjaeva depozit siyosatini yuridik va jismoniy shaxslar mablag‘larini safarbar qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui sifatida talqin qiladi.<sup>7</sup>

Mahalliy olimlardan M.N.Buxadurov depozit siyosatini qaytarish va haq evaziga jalb qilish shartlari asosida mablag‘larni jalb etishga yo‘naltirilgan bosqichma-bosqich harakatlar majmui sifatida izohlaydi.<sup>8</sup> S.M.Xodiev tijorat banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq normativ, tashkiliy va texnologik masalalarni qamrab oluvchi depozit faoliyati dasturlari majmui sifatida ta‘rif beradi.<sup>9</sup> B.U.Shermammedov tijorat banklarining depozit siyosatini ishlab chiqish bank faoliyatini tartibga solish va rivojlantirishga qaratilgan strategik vazifalar majmui ekanligini ta‘kidlaydi.<sup>10</sup>

Tijorat banklarining depozit siyosati bankning moliyaviy strategiyasi va iqtisodiy barqarorligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Depozit siyosati omonatlarni jalb qilish, likvidlikni boshqarish hamda bank aktivlarining daromadlilikini ta‘minlashga xizmat qiladi. Raqobatning kuchayib borayotgan sharoitida tijorat banklari depozit siyosatini moslashtirish, foiz stavkalarini optimallashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda mijozlar uchun jozibador shart-sharoitlar yaratish orqali depozit strategiyasini takomillashtirishi zarur.

---

<sup>4</sup> Мартенс А.А., Деркач Н.О. Депозитная политика как базовый элемент фондирования коммерческого банка // Образование и наука: современные тренды. – Чебоксары: ЦНС «Интерактив плюс», 2018. – С. 140–150.

<sup>5</sup> Коробова Г.Г. Банковское дело. – М.: Финансы и статистика, 2016. – С. 215.

<sup>6</sup> Лаврушин О.И. Банковский менеджмент. – М.: КНОРУС, 2018. – С. 189.


<sup>7</sup> Каджаева М.Р. Банковские операции. – М.: ИЦ «Академия», 2018. – С. 7.

<sup>8</sup> Buxadurov M.N. “Depozit siyosatining tijorat banklari va aholi o‘rtasidagi munosabatlardagi o‘rni”. Avtoreferat. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. Ixtisoslik: 08.00.10. – M.: 2012. – B. 12–15.

<sup>9</sup> Xodiyev S.M. “Iqtisodiyot liberallasuvi sharoitida tijorat banklarining depozit siyosatini takomillashtirish”. Avtoreferat. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. Ixtisoslik: 08.00.07. – T.: 2010. – B. 19.

<sup>10</sup> B.U.Shermammedov. “Tijorat banklarining depozit siyosati va uni iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirish yo‘llari”. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2021 yil. – С. 1-12.

Bankning samarali depozit siyosatini shakllantirish jarayonida strategik va operatsion mexanizmlarni o‘z ichiga oluvchi uchta asosiy blokni ajratish maqsadga muvofiqdir. Mazkur bloklar 1-rasmda aks ettirilgan.



**1-rasm. Bankning samarali depozit siyosatini ishlab chiqish bloklari<sup>11</sup>**

Tijorat bankining depozit siyosati depozit resurslarini jalb etishga qaratilgan strategiya va taktika sifatida subyektiv va obyektiv tarkibiy qismlardan iborat. Subyektiv tarkibga bank, omonatchilar (jismoniy va yuridik shaxslar) hamda moliya-kredit faoliyatini tartibga soluvchi davlat organlari kiradi. Obyektiv tarkib esa muddatli, jamg‘arma va talab qilib olinguncha depozitlar, shuningdek bank veksellari va jamg‘arma sertifikatlaridan iborat moliyaviy resurslarni qamrab oladi.

Shu asosda depozit siyosati bank resurslarini jalb qilish bo‘yicha strategiya va taktika sifatida tavsiflanib, bankning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynashi asoslab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining depozit siyosatini normativ-huquqiy tartibga solish qonunlar, Markaziy bankning me‘yoriy-huquqiy hujjatlari hamda banklarning ichki reglamentlari majmuasiga asoslanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni omonatchilar manfaatlarini himoya qilish va bank tizimi barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan.

<sup>11</sup>Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan

Birinchi bobda depozit siyosatini shakllantirishning ilmiy asoslari va spetsifik tamoyillari tizimlashtirilib, depozit siyosatini ishlab chiqishning umumiy va xususiy asoslari 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval.**

**Tijorat banking samarali depozit siyosatini shakllantirishning asoslari<sup>12</sup>**

		Asos	Xususiyati (ta’rifi)
1	Umumiy asoslar	Ilmiy asoslanganlik	Bank strategiyasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlar, innovatsion yondashuvlar va ilg’or amaliy tajribalar natijalariga tayangan holda shakllantiriladi.
		Tizimli yaxlitlik	Bankning umumiy tizimiga uyg’unlashtirilgan bo‘lib, asosan bankning aktiv operatsiyalariga bog‘liq holda boshlang‘ich xarakterga ega.
		Kompleks yondashuv	Bank strategiyasi va taktikasi asosida, depozit mablag‘larini joylashtirishdan olinadigan daromadni baholashga qaratilgan ilmiy yondashuvlarga asoslanadi.
		Samaradorlik	Bank rivojlanishining samarali bosqichini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda maqsad, jalb qilingan mablag‘lar hajmi hamda ularni samarali amalga oshirish yo‘llari aniqlanadi.
		Elementlarning birligi	Depozit siyosatini uning barcha tarkibiy qismlari o‘zaro chambarchas bog‘liq va bir-biriga bog‘liq holda ko‘rib chiqishga asoslanadi.
2	Xususiy (spetsifik) asoslar	Imtiyozli xarajatlarni ta‘minlash	Bank daromadlilikini tartibga solish va xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan bo‘lib, rahbariyatning bozor narxlari o‘zgarishiga moslashuvchan javob berish qobiliyatini bildiradi.
		Bank operatsiyalarining xavfsizligi	Mijozlar manfaatlarini himoya qiluvchi tizimni shakllantiradi va ularning hisobvaraqlariga oid ma’lumotlarning maxfiyiligini qat’iy saqlanishini nazarda tutadi.
		Ishonchlilikni ta‘minlash	Bankning barqarorligi va mijozlar oldidagi majburiyatlarni, xususan, depozitlar bo‘yicha foizlarni o‘z vaqtida to‘lash imkoniyatlarini kafolatlashi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotda xorijiy davlatlar tajribasi o‘rganilib, indeksatsiyalangan depozitlar, lotereyaviy depozitlar (Prize-Linked Savings) hamda multivalyutali avtomatik jamg‘arma mexanizmlari kabi innovatsion depozit mahsulotlarining afzalliklari ilmiy jihatdan asoslangan. Xususan, AQSHning “Save to Win” dasturi va Singapurning DBS Multi-Currency Autosave mexanizmi misolida depozit mahsulotlarining diversifikatsiyasi bank resurs bazasini kengaytirish va mijozlarni uzoq muddatli jamg‘armalarga jalb etishda muhim instrument ekanligi ko‘rsatib berilgan.

Birinchi bob yakunida depozit siyosatiga quyidagi mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan: “Bankning depozit siyosati — bu mijozlarning depozit resurslarini qisqa va uzoq muddatli davrlarga jalb qilishga yo‘naltirilgan strategik chora-tadbirlar va amaliy harakatlar majmuasidir.”<sup>13</sup>

Xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish ularning ijobiy jihatlarini O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida qo‘llash imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi hamda bu tijorat banklarining resurs bazasini kengaytirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

<sup>12</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>13</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Dissertatsiyaning “Tijorat banklarida depozit operatsiyalarining hozirgi holatini tahlil qilish” deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida depozit operatsiyalarining o‘rni va ahamiyati o‘rganildi, depozit bozorining amaldagi holati tahlil qilindi hamda depozitlarning bank majburiyatlariga nisbati va depozitlar bo‘yicha foiz stavkalarining taqqoslamali bahosi amalga oshirildi. Depozit operatsiyalari bank resurs bazasini shakllantirishning asosiy manbai bo‘lib, kreditlash va investitsion faoliyatni moliyalashtirish uchun barqaror moliyaviy zamin yaratadi hamda bank tizimida uzluksiz moliyaviy aylanishni ta‘minlaydi.


Tahlillar natijasida 2021–2025-yillarda depozitlar hajmi banklar mulkchilik shakliga ko‘ra ijobiy o‘sish tendensiyasiga ega ekani aniqlandi (2-jadval).

## 2-jadval

### Tijorat banklarining depozitlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar <sup>14</sup> (mlrd so‘m)

Banklar mulkchilik shakli bo‘yicha	01.05.2021	01.05.2022	01.05.2023	01.05.2024	01.05.2025
Jami	118 441	161 735	208 448	248 570	339 160
Davlat ulushi mavjud banklar	84 365	105 029	125 299	125 100	172 612
Boshqa banklar	34 076	56 706	83 148	123 470	166 548

Jumladan, davlat ulushi mavjud banklarda depozitlar 2021-yildagi 84 365 mlrd so‘mdan 2025-yilda 172 612 mlrd so‘mga oshgan bo‘lsa, davlat ulushisiz banklarda ushbu ko‘rsatkich 34 076 mlrd so‘mdan 166 548 mlrd so‘mga yetgan. Bu depozit bozorida raqobat kuchayib borayotganini va omonatchilar faolligi ortayotganini ko‘rsatadi.



2-rasm. Davlat ulushi mavjud tijorat banklarining depozit portfeli tarkibi, <sup>15</sup> (2025-yil 1-may holatiga), mlrd so‘m

<sup>14</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Tijorat banklarining kredit va depozitlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar <https://cbu.uz/ru/statistics/bankstats/>

<sup>15</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining asosiy ko‘rsatkichlari (2025-yil 1-may holatiga). Markaziy bank rasmiy statistik ma‘lumotlari. URL: <https://cbu.uz/ru/statistics/bankstats/2470542/>

2025-yil 1-may holatiga ko‘ra davlat ulushi mavjud banklarda depozitlarning taqsimlanishi 2-rasmda keltirilgan.

Mazkur ma’lumotlar omonatchilar ishonchining banklar kesimida taqsimlanishini hamda depozit bozorida yirik banklar ulushining yuqoriligini baholash imkonini beradi. Xususan, depozit bozori hajmi bo‘yicha eng yirik ulushga “O‘zmilliybank” AJ ega bo‘lib, depozitlar hajmi 41 000 mlrd so‘mga yaqinlashgan. Keyingi o‘rinlarda “Xalq banki” AT ( $\approx 25,9$  mlrd so‘m), “O‘zsanoatqurilishbank” ATB ( $\approx 23,9$  mlrd so‘m) va “Agrobank” ATB ( $\approx 23$  mlrd so‘m) qayd etilgan. Ushbu tuzilma depozitlar bozorida konsentratsiya yuqoriligini, ya’ni depozitlar asosan bir nechta yirik banklarda jamlanayotganini ko‘rsatadi.

Bank depozitlari bo‘yicha foiz stavkalari dinamikasi (2020–2025-yillar) tahlili (3-jadval) milliy valyutadagi muddatli omonatlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkalari xorijiy valyutadagiga nisbatan yuqoriroq ekanini ko‘rsatdi (3-jadval).

### 3-jadval

#### Milliy va chet el valyutasidagi bank depozitlari bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkalari<sup>16</sup> (1-yanvar holatiga), %

Ko‘rsatkichlar			yillar					
			2020	2021	2022	2023	2024	2025
<b>Milliy valyutada</b>								
Jismoniy shaxslarning	muddatli	depozitlari	20,4	17,0	20,2	20,5	21,3	22,1
Yuridik shaxslarning	muddatli	depozitlari	16,6	15,7	15,1	16,7	18,5	16,8
<b>Chet el valyutasida</b>								
Jismoniy shaxslarning	muddatli	depozitlari	4,4	3,7	3,9	4,3	4,7	5,1
Yuridik shaxslarning	muddatli	depozitlari	5,2	4,7	2,5	3,3	4,8	4,8

Mazkur holat, bir tomondan, milliy valyutadagi jamg‘armalarni rag‘batlantirishga qaratilgan pul-kredit siyosati bilan, ikkinchi tomondan esa xorijiy valyutadagi depozitlarning “nisbatan ishonchli aktiv” sifatida qabul qilinishi bilan izohlanadi. 2025-yil holatiga ko‘ra depozit mahsulotlari bo‘yicha qiyosiy tahlil (4-jadval) banklar o‘rtasida foiz stavkalari, muddat, minimal summa hamda qisman to‘ldirish/yechib olish imkoniyatlari kesimida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Bu esa banklarga mijoz segmentatsiyasini chuqurlashtirish va ehtiyojga mos mahsulotlarni shakllantirish orqali omonatlarning umumiy jozibadorligini oshirish imkonini beradi.

<sup>16</sup> Muallif tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yilgi statistik byulleteniga” asoslanib ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga, depozit portfeli tarkibida qisqa muddatli va talab qilib olinguncha depozitlar ulushining yuqori darajada saqlanib qolayotgani bank resurslarining uzoq muddatli barqarorligini cheklashi mumkinligi aniqlandi.

#### 4-jadval

### O'zbekiston Respublikasidagi tijorat banklarining depozit mahsulotlari bo'yicha solishtirma tahlil<sup>17</sup>

№	Bank nomi	Stavka si, %	Muddat	Miqdori, so'm	To'ldirish	Yechish
1	TBC Bank	27	2 yil	100 000 – 5000000 mlrd so'm	Mavjud emas	Mavjud emas
2	Xalq banki	23	2 yil	100 000 so'mdan boshlab	Mavjud emas	Mavjud emas
3	Anor Bank"	23	25 oy	1 000 000 so'mdan boshlab	Mavjud emas	Mavjud emas
4	Davr Bank	23	25 oy	100 000 so'mdan boshlab	Mavjud emas	Mavjud emas
5	InFinBank	22	18 oy	1 000 000 so'mdan boshlab	Mavjud	Mavjud
6	Asia Alliance Bank	22	2 yil	1 000 000 so'mdan boshlab	Mavjud emas	Mavjud emas
7	Ipak yo'li bank	22	2 yil	1 000 000 so'mdan boshlab	Mavjud	Mavjud
8	Poytaxt Bank	22	2 yil	1 000 000 so'mdan boshlab	Mavjud	Mavjud
9	Trastbank	22	2 yil	500 000 so'mdan boshlab	Mavjud	Mavjud
10	Universal bank	22	22 oy	500 000 so'mdan boshlab	Mavjud emas	Mavjud emas
11	Agrobank	21	18 oy	100 000 so'mdan boshlab	Mavjud	Mavjud
12	Turonbank	21	1 yil	100 000 so'mdan boshlab	Mavjud	Mavjud
13	O'zsanoatqurilish bank	21	2 yil	500 000 so'mdan boshlab	Mavjud emas	Mavjud emas
14	Ziraat Bank Uzbekistan	20	2 yil	3 000 000 so'mdan boshlab	Mavjud emas	Mavjud emas
15	Asakabank	19	13 oy	100 000 so'mdan boshlab	Mavjud	Mavjud

Tijorat banklarida depozit siyosatini shakllantirish va uning samaradorligini baholashda depozit resurslarining sifati, barqarorligi hamda tarkibiy xususiyatlarini aks ettiruvchi indikatorlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bank resurs bazasining arzonligi, likvidligi va risklarga chidamliligini baholash maqsadida CASA koeffitsiyentlari, depozitlarning jami majburiyatlarga nisbati (DLR) hamda depozit

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilingan statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

manbalarining diversifikatsiya indeksi (DI) qo'llanildi. Ushbu indikatorlar, ularning hisoblash formulalari va iqtisodiy mazmuni 5-jadvalda keltirilgan.

### 5-jadval

#### Tijorat banklarida depozit resurslarini baholash ko'rsatkichlari<sup>18</sup>

Indikator	Formula	Ko'rsatkichlar	Iqtisodiy mazmuni
<b>CASA (jismoniy), %</b>	$CASA^{phys} = \frac{D_{demand}^{phys}}{D_{total}^{phys}} \times 100$	D_demand_phys – jismoniy shaxslarning talab qilib olinuvchi depozitlari. D_total_phys – jismoniy shaxslarning jami depozitlari.	Aholi depozitlari tarkibida talab qilib olinuvchi (arzon) resurslar ulushini ifodalaydi. CASA ↑ → resurslar arzon, foiz xarajatlari kam CASA juda yuqori → likvidlik xavfi ortishi mumkin CASA ↓ → muddatli depozitlar ulushi ortib, barqarorlik kuchayadi
<b>CASA (yuridik), %</b>	$CASA^{corp} = \frac{D_{demand}^{corp}}{D_{total}^{corp}} \times 100$	D_demand_corp – yuridik shaxslarning talab qilib olinuvchi depozitlari. D_total_corp – yuridik shaxslarning jami depozitlari.	Korporativ depozitlar tarkibida joriy hisobvaraqlar va talab qilib olinuvchi mablag'lar ulushini ko'rsatadi. Yuridik CASA ↑ → arzon, ammo eng mobil resurs Yuridik CASA ↓ → korporativ muddatli depozitlar ulushi ortib, barqarorlik oshadi Yuqori CASA → chiqib ketish xavfi (withdrawal risk)
<b>DLR (depozit/majburiyat), %</b>	$DLR = \frac{Deposits}{Total Liabilities} \times 100$	Deposits – jami depozitlar. Total Liabilities – jami majburiyatlar.	DLR yuqori → majburiyatlar tarkibida depozitlar ulushi katta, ya'ni bank asosan depozitlar hisobiga moliyalashyapti. Bu ko'p holda barqarorlik va ichki resurslarga tayanishni anglatadi. DLR past → bank tashqi mablag'larga (banklararo qarz, boshqa qarz instrumentlari) ko'proq tayanadi; bu fondlash risklarini oshirishi mumkin.
<b>4) Depozit diversifikatsiya indeksi (DI)</b>	$DI = 1 - (p^2 + q^2)$ $p = \frac{D^{phys}}{D^{total}}, \quad q = \frac{D^{corp}}{D^{total}}$	D_phys – jismoniy depozitlar. D_corp – yuridik depozitlar. D_total – jami depozitlar	DI 0 ga yaqin – konsentratsiya yuqori. DI 0.5 ga yaqin – diversifikatsiya eng yaxshi

CASA koeffitsiyenti jismoniy va yuridik shaxslar depozitlari tarkibida talab qilib olinuvchi (arzon) resurslar ulushini ifodalab, bank resurslarining qiymati hamda likvidlik darajasini baholash imkonini beradi. DLR ko'rsatkichi depozitlarning bank majburiyatlari tarkibidagi o'rnini aniqlashga xizmat qilsa,

<sup>18</sup> Muallif tomonidan ilmiy tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan

depozit diversifikatsiya indeksi (DI) depozit manbalarining konsentratsiya darajasini hamda muvozanatli taqsimlanganligini baholash imkonini beradi.

Ushbu metodologik yondashuv asosida O‘zbekiston tijorat banklarida depozit resurslarining sifati va barqarorligi 2020–2024 yillar kesimida tahlil qilindi (6-jadval).

## 6-jadval

### O‘zbekiston tijorat banklarida depozit resurslarining sifati va barqarorlik ko‘rsatkichlari<sup>19</sup> (2020–2024yillar)

Yil	CASA (jismoniy), %	CASA (yuridik), %	DLR (depozit/majburiyat), %	Depozit diversifikatsiya indeksi (DI)
2020	92,06	88,67	41,05	0,23
2021	91,93	87,01	37,28	0,25
2022	92,08	86,03	41,76	0,29
2023	90,77	87,59	45,42	0,34
2024	91,06	87,69	43,54	0,36

Jadval 6 ma’lumotlariga ko‘ra, 2020–2024 yillarda jismoniy shaxslar depozitlari bo‘yicha CASA koeffitsiyenti 90% dan yuqori darajada saqlanib qolgan (2020-yilda 92,06%, 2024-yilda 91,06%). Bu banklar tomonidan aholi mablag‘lari asosan talab qilib olinuvchi depozitlar orqali jalb etilayotganini bildiradi. Yuqori CASA darajasi banklar uchun resurslar qiymatini pasaytirish va foiz xarajatlarini cheklash imkonini bersa-da, qisqa muddatli likvidlik xatarlarini kuchaytirishi mumkin. Yuridik shaxslar depozitlari bo‘yicha CASA koeffitsiyentining ham yuqori bo‘lishi (2020-yilda 88,67%, 2024-yilda 87,69%) korporativ mablag‘larning yuqori mobilligini ko‘rsatib, depozit siyosatini ishlab chiqishda “chiqib ketish xatari”ni inobatga olish zarurligini asoslaydi.

Depozitlarning majburiyatlarga nisbati (DLR) 2020–2024 yillarda 37,28–45,42% oralig‘ida shakllangan bo‘lib, depozitlarning bank majburiyatlari tarkibidagi o‘rni nisbatan barqaror ekanini ko‘rsatadi. Depozit diversifikatsiya indeksi (DI)ning 2020-yildagi 0,23 dan 2024-yilda 0,36 ga oshishi depozit manbalari tarkibida muvozanatning nisbatan yaxshilanayotganidan dalolat beradi, biroq diversifikatsiya darajasini yanada chuqurlashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Umuman olganda, ikkinchi bob bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar O‘zbekiston tijorat banklarida depozit operatsiyalari hajmi oshib borayotganini, biroq depozit portfeli tarkibida talab qilib olinguncha mablag‘lar ulushi yuqoriligi, konsentratsiya darajasining saqlanib qolishi hamda foiz stavkalari bo‘yicha raqobatning kuchayishi banklar uchun qo‘shimcha likvidlik va foiz xarajatlari xatarlarini yuzaga keltirayotganini ko‘rsatdi. Aniqlangan holatlar depozit siyosatini takomillashtirish, muddatli jamg‘armalarni rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni kengaytirish, depozit bazasini diversifikatsiyalash hamda moslashuvchan depozit mahsulotlarini joriy etish zarurligini asoslaydi. Ushbu yo‘nalishlar dissertatsiyaning uchinchi bobida ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar orqali batafsil yoritiladi.

<sup>19</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ochiq ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari (2020–2024).


Dissertatsiya ishining “**Tijorat banklarida depozit operatsiyalarini takomillashtirish**” deb nomlangan uchinchi bobida tijorat banklarining depozit siyosatini takomillashtirish bo‘yicha mualliflik konseptual modeli ishlab chiqildi, depozit mahsulotlarini investitsiya instrumentlari bilan integratsiyalash, moslashuvchan depozit dasturlarini joriy etish hamda mijozlarni rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi. Shuningdek, depozit bozorini institutsional rivojlantirish va omonatlarni kafolatlash tizimini mustahkamlashga qaratilgan institutsional mexanizmlar hamda strategik yo‘nalishlar asoslandi.

Dissertatsiyada asoslab berilishicha, bank resurs bazasini shakllantirish jarayoni ko‘p sonli iqtisodiy, institutsional va bank ichki omillarga bog‘liq bo‘lib, mazkur omillar bankning moliyaviy resurslari hajmi va tarkibini belgilaydi hamda bank faoliyatining barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli samarali depozit siyosatini shakllantirish omonatchilarning jamg‘arma va investitsion motivatsiyasiga ta’sir etuvchi omillarni tizimli va kompleks yondashuv asosida hisobga olishni talab etadi.

Tadqiqotda depozit siyosatiga ta’sir etuvchi omillar iqtisodiy mazmuniga ko‘ra ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) guruhlariga ajratildi. Ekzogen omillar depozit bozorining umumiy shart-sharoitlarini belgilab, bank tomonidan bevosita boshqarilmaydi hamda makroiqtisodiy muhit, pul-kredit siyosati, valyuta omili, raqobat muhiti, institutsional-huquqiy baza, jamg‘arma madaniyati va moliyaviy savodxonlik kabi omillarni qamrab oladi. Endogen omillar esa bank kapitallashuvi, reputatsiya va brend imiji, xizmatlar sifati, depozit shartlarining moslashuvchanligi, raqamli infratuzilma hamda risk-menejment tizimi bilan bog‘liq bo‘lib, bank tomonidan faol boshqarilishi mumkin bo‘lgan omillar sifatida talqin qilindi.

Depozit siyosatini takomillashtirish jarayoni “**omillar → boshqaruv qarorlari → depozit portfeli natijalari**” mantiqiy zanjiri asosida konseptual tarzda asoslandi. Mualliflik konseptual modelida (Rasm 3) tashqi muhit, institutsional sharoit hamda bank ichki boshqaruv mexanizmlari depozit siyosati qarorlari bilan o‘zaro bog‘langan holda aks ettirildi. Ushbu model depozit siyosatini bankning strategik boshqaruv tizimi bilan uyg‘un holda talqin qilish imkonini berib, depozit portfeli parametrlarini boshqarishda tizimli yondashuvni ta’minlaydi.

Rasm 3da tijorat banklarida depozit siyosatini takomillashtirishning mualliflik konseptual modeli aks ettirilgan. Mazkur model depozit siyosatini shakllantirish jarayonini tizimli yondashuv asosida talqin qilish imkonini berib, depozit siyosatiga ta’sir etuvchi tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillar, bank ichki boshqaruv mexanizmlari hamda depozit portfeli natijalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalaydi. Modelda depozit siyosatini takomillashtirish jarayoni “omillar → boshqaruv qarorlari → depozit portfeli natijalari” mantiqiy zanjiri asosida ko‘rsatilib, bank resurs bazasini shakllantirish jarayonining dinamik xususiyati ochib berilgan.



**3-rasm. Tijorat banklarining depozit siyosatini shakllantirishning mualliflik konseptual modeli<sup>20</sup>**

Konseptual modelga ko'ra, depozit siyosatiga ta'sir etuvchi ekzogen omillar makroiqtisodiy muhit, pul-kredit siyosati, valyuta bozori holati, raqobat muhiti, institutsional-huquqiy baza hamda moliyaviy savodxonlik darajasi kabi omillarni qamrab oladi. Endogen omillar esa bank kapitallashuvi darajasi, xizmatlar sifati, raqamli infratuzilma, depozit shartlarining moslashuvchanligi, marketing siyosati va risk-menejment tizimi bilan bog'liq bo'lib, bank tomonidan bevosita boshqarilishi mumkin bo'lgan omillar sifatida talqin qilinadi. Mazkur omillarning o'zaro ta'siri bankning depozit siyosati bo'yicha strategik va operatsion qarorlarini shakllantiradi.

Modelda bank boshqaruv qarorlari depozit mahsulotlari dizayni, foiz siyosati, rag'batlantirish mexanizmlari, segmentatsiya strategiyasi va depozit portfelini optimallashtirish orqali ifodalanib, ularning yakuniy natijasi depozit portfelining hajmi, muddat tuzilmasi, barqarorligi hamda resurslar qiymatiga ta'siri bilan baholanadi. Shuningdek, model depozit siyosatini bankning umumiy strategik boshqaruv tizimi bilan uyg'unlashtirish zarurligini asoslab, depozit portfelini boshqarishda tizimli va kompleks yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu tariqa, mualliflik konseptual modeli tijorat banklarida depozit siyosatini shakllantirish va takomillashtirish jarayonini ilmiy jihatdan tizimli asoslash, depozit resurslarini jalb etish samaradorligini oshirish hamda bank resurs

<sup>20</sup> Muallif tomonidan ilmiy tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan

bazasining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mualliflik konseptual modeli asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy depozit mahsulotlari asosan fiksatsiyalangan foiz stavkalariga asoslanib, banklar o'rtasida "stavka poygasi"ni kuchaytiradi va depozit resurslarining qisqa muddatli bo'lishiga olib keladi. Bunday sharoitda banklar uchun resurslar qiymati ortib, depozit portfelining muddat tuzilmasi yomonlashadi hamda uzoq muddatli kreditlash imkoniyatlari cheklanadi.

Shu sababli depozit resurslarini jalb etish samaradorligini oshirish uchun depozit mahsulotlarini investitsion instrumentlar bilan integratsiyalashga asoslangan mualliflik yondashuvi ishlab chiqildi. Taklif etilgan konsepsiyaga ko'ra, integratsiyalashgan depozit mahsuloti ikki tarkibiy qismdan iborat bo'ladi:

1. asosiy summa kafolatlangan depozit komponenti;
2. moliyaviy bozor instrumentlariga (fond indeksleri, obligatsiyalar, valyuta juftliklari, qimmatbaho metallar va boshqa aktivlar) bog'langan investitsion komponent.

